

# "O'zkimyosanoat" AJ xalqaro hamkorlikdagi loyihalarni kengaytirmoqda

// 03.01.2025

<https://uzkmyosanoat.uz/oz/press/news/o-zkimyosanoat-aj-xalqaro-hamkorlikdagi-loyihalarni-kengayti>



"O'zkimyosanoat" AJ ishlab chiqarish jarayonlariga investitsiyalarni jalg etish, xalqaro hamkorlikni yanada kengaytirish va o'zaro manfaatli yangi loyihalarni yo'lga qo'yish maqsadida amaliy harakatlar olib bormoqda.

Xususan, "O'zkimyosanoat" AJ va Xitoyning China Huanqiu Contracting & Engineering Corporation (HQC) kompaniyasi o'ttasida hamkorlikni yanada kuchaytirish va yangi loyihalarni yo'lga qo'yish yuzasidan muzokaralar o'tkazildi.



Muloqot chog'ida "Navoiyazot" AJ negizida ammiak va karbamid ishlab chiqarish loyihasi hamda "Ammofos-maxam" Ajda fosfogips chiqindisini qayta ishlash orqali sulfat kislotasini ishlab chiqarish loyihalarini yo'lga qo'yish masalalari ko'rib chiqildi.

Muzokara yakunida mazkur loyihalarni birgalikda amalga oshirish yuzasidan xadli bitimlar imzolandi.

**"O'zkimyosanoat" AJ Matbuot xizmati**